TRANSPORT NOMLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Muhammadaliyev Mirzohid Nosirjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti
ORCID: 0009-0009-6715-2467
bekhmirzokhid27@mail.ru

Abstract. *The article examines the lexical and semantic features of poreyonyms, their origins, and naming motivations. Transport vehicle names are classified according to their types and semantic characteristics.*

Keywords: *poreyonym, poreyonymy, transport onomastics, lexical-semantic features, nomination, naming motivation.*

Annotatsiya. *Maqolada poreyonimlarning leksik-semantik xususiyatlari, kelib chiqishi va nomlanish motivlari tahlil qilinadi. Transport vositalari nomlari turlari va semantik xususiyatlariga ko‘ra tasniflanadi.*

Kalit so‘zlar: *poreyonim, poreyonimika, transport onomastikasi, leksik-semantik xususiyat, nominatsiya, nomlanish motivi.*

Аннотация. В статье анализируются лексико-семантические особенности порейонимов, их происхождение и мотивы номинации. Названия транспортных средств классифицируются по видам и семантическим характеристикам.

Ключевые слова: *порейоним, порейонимика, транспортная ономастика, лексико-семантические особенности, номинация, мотив номинации.*

Kirish. Transport vositalarining maxsus atoqli nomlari majmui zamonaviy onomastikaning alohida mikroko‘lamiga mansub onomastik birliklardir. Poreyonimlar zamonaviy onomastikaning ichki jihatdan murakkab bo‘lib, ular faqat texnik identifikator emas, balki tarixiy, geografik, madaniy, kognitiv va tijoriy axborotni birlashtiruvchi nominativ birliklardir.

Asosiy qism. Tilning leksik sathida, xususan, onomastik tizimida transport vositalarining maxsus atoqli nomlari alohida guruhni tashkil etadi. Onomastikada muayyan transport vositasining atoqli nomi poreyonim (grek. porey + onim –

harakat vositasi) deb ataladi. Poreyonim termini tarixiy-etimologik jihatdan lotincha bo‘lib, poreia – *sayohat, safar, harakat;* onyma – *nom* so‘zlaridan olingan. Bu so‘z qadimgi yunoncha *poreia* (*harakat, transport, sayohat*) va *onyma* (*ism, nom*) so‘zlaridan tarkib topgan.

Poreyonimlar onomastik mikroko‘lamiga har qanday turdagi transport vositalarining nomlari mansubdir. Masalan, *“Moskavich”, “Volga”* (mashina nomlari), *“Titanik”* (kema nomi) kabi.

Ayrim manbalarda tilshunoslar poreyonimlarga mansub *suv kema nomlarni* **navtionimlar,** *havo kemalari nomlarini* **avionimlar** deb ataydilar va ajratib tasniflaydilar , biroq bunday tasniflash mukammal emas, chunki barcha transport nomlarini qamrab olmagan.

Muayyan hudud yoki tilga mansub poreyonim – poreyonimik birliklar majmui poreyonimiyani, poreyonimlar onomastik ko‘lamini tashkil etadi. Masalan, *Amerika poreyonimiyasi, Rossiya poreyonimiyasi, O‘zbekiston poreyonimiyasi* yoki *ingliz tili poreyonimiyasi, o‘zbek tili poreyonimiyasi* kabi.

O‘zbek tili poreyonimiyasi deganda shu tilda iste’molda bo‘lgan, amaliy faoliyatda faol qo‘llanayotgan *yengil va yuk mashinalari, avtobus, samolyot, vertalyot, qayiq, kema* kabi barcha turdagi transport vositalarining atoqli otlari mansubdir. Masalan, *“Tiko”, “Damas”, “Neksiya”, “Spark”, “Matiz”, “Malibu”, “Tracker”*(yengil mashinalarning nomlari); *MAN TGX, KamAZ, DAF XF* (yuk mashinalarining nomlari); *Mercedes-Benz Conecto, Yutong ZK6128, King Long XMQ6127* (avtobuslarning nomlari); *Boeing 737, Airbus 330* (samolyotlarning nomlari); *Mil Mi-26, Bell H125, Robinson R44* (vertolyotlarning nomlari); *Kazanka, Progress, Amur, Yuzhanka* (qayiqlarning nomlari); *“Afrosiyob”, “Sharq”* (poyezdlarning nomlari) kabi.

Poreyonimlar tarixiy-etimologik jihatdan o‘z va o‘zlashma leksik qatlamga mansub bo‘ladi. O‘zbek til poreyonimlari bu jihatdan, yuqorida keltirilgan poreyonimik birliklardan ham ko‘rinadiki, asosan, o‘zlashma qatlamga mansub. Bu transport sanoati xorijiy davlatlarda rivojlanganligi, transportlarning turlari ingliz, rus va boshqa xalqaro tillarda nomlanganligi va transport vositalari bizga asl xorijiy nomi bilan kirib kelganligi bilan izohlanadi.

Muayyan til poreyonimiyasiga mansub har bir birlik o‘ziga xos nominatsion-motivatsion, leksik asos va ma’noga ega. Masalan, *Ford* – dunyodagi eng mashhur va yirik Amerika avtomobil brendlaridan biri. Ford avtomobil brendi nomi, ya’ni poreyonim Genri Ford (Henry Ford) familiyasidan olingan. Genri Ford 1903-yilda AQShning Michigan shtatida o‘zining shaxsiy avtomobil zavodiga asos soladi va unga *Ford Motor Company (Ford motor*

kompaniyasi) deb nom beradi. Kompaniya o‘z tarixi davomida yuzlab turli rusumdagi avtomobillarni ishlab chiqargan. Keyinchalik kompaniya tomonidan ichlab chiqarilgan avtomobillarga ham *Ford* nomi beriladi va ularning soni, turi ortib borishi bilan *Ford* poreyonimi negizida yana o‘nlab poreyonimlar hosil qilingan. Mazkur avtomobillar nomlari alohida poreyonimlar turkumini tashkil etadi.

Antroponim – familiyaga *ford* apellyativi leksik asos bo‘lgan. *Ford* apellyativi qadimiy inglizcha bo‘lib, *daryoning sayoz, odam yoki transport vositasi kechib o‘ta oladigan qismi (kechuv joyi)* ma’nosini anglatadi. Mazkur so‘z ramziy ma’noda kishi ismi va familiyaga o‘tgan. Bu lisoniy jarayoni quyidagicha ifodalash mumkin: *ford* (apellyativ) > *Ford* (ism) > *Ford* (familiya – Genri Ford).

Keyinchalik *Genri Ford* antroponimi transonimizatsiya usulida kompaniya va avtomobillar nomiga aylangan. Boshqacha aytganda, antroponimdan poreyonim hosil bo‘lgan: *Genri Ford* > *Ford* (familiya – antroponim) > *Ford* (kompaniya nomi) > *Ford* (avtomobil nomi – poreyonim). Demak, *Ford* poreyonimi kompaniya asoschisi familiyasi bilan atalganligi bois nominatsion-motivatsion va leksik asosida ko‘ra antroporeyonim. Biroq *Ford* poreyonimining *ford* apellyativi bilan bog‘liqligi yo‘q, balki shu apellyativ asos bo‘lgan antroponim (ism, familiya) uzviy aloqador. Shu jihatdan Ford onomastik birligi *Genri Ford asos solgan kompaniya* (ergonim) *va Ford kompaniyasida ishlab chiqarilgan avtomobil* (poreyonim) ma’nolarini ifodalaydi.

Mazkur turkumga mansub poreyonimlarni quyidagicha guruhlash mumkin: **1) afsonaviy va sport avtomobillari:** *Ford Mustang* (dunyodagi eng mashhur “pony car” toifasidagi sport avtomobili), *Ford GT* (poygalar uchun mo‘ljallangan supercar), *Ford Model T* (1908-yilda chiqilqan, dunyoda birinchi bo‘lib konveyerda ommaviy ishlab chiqarilgan afsonaviy model), **2) yo‘ltanlamaslar (SUV) va krossoverlar:** *Ford Explorer* (oilaviy va yirik hajmli yo‘ltanlamas), *Ford Escape* (Yevropada Kuga –ixcham crossover), *Ford Bronco* (yo‘lsiz hududlar (off-road) uchun mo‘ljallangan mashhur model), *Ford EcoSport* (eng kichik krossoverlardan biri), **3) pikaplar (yuk mashinalari):** *Ford F-150* (AQShda o‘nlab yillar davomida eng ko‘p sotilayotgan, dunyodagi eng mashhur pikap), *Ford Ranger* (o‘rta hajmli pikap); 4) **shahar avtomobillari (Sedan va Xetchbeklar):** *Ford Focus* (ixcham va tejamkor shahar avtomobili), *Ford Fiesta* (juda mashhur kichik shahar avtomobili), *Ford Mondeo* (AQShda Fusion) (qulay va keng biznes-klass sedani); elektromobillar: *Ford Mustang Mach-E* (to‘liq

elektr quvvatida ishlaydiong crossover), *Ford F-150 Lightning* (F-150 pikapining to‘liq elektr versiyasi) kabi.

Poreyonimik birliklarni o‘rganuvchi onomastika yo‘nalishi **poreyonimika** deb yuritiladi. Poreyonimika onomastikaning transport vositalarini nomlash tamoyillari, usullari, poreyonimik birliklarning leksik-semantik, derivatsion, struktural, grafik, orfografik xususiyatlarini o‘rganuvchi bo‘limidir.

Poreyonimika avtomobilsozlik, mashinasozlik, samolyotsozlik, kemasozlik, transport xizmati, yo‘lovchi transporti, temir yo‘l transporti, havo transporti, suv transporti kabi amaliy sohalar bilan hamkorlikka asoslanadi va uzviy aloqada ish olib boradi.

Poreyonim transport tizimi bilan bog‘liq. Tilda *transport* [lot. *transportare* – olib bormoq, tashimoq, o‘tkazmoq] so‘zi quyidagi ma’nolarda qo‘llanadi:

1.Xalq xo‘jaligining yuk va passajirlar tashish bilan shug‘ullanuvchi tarmog‘i va uning vositalari.

2.Harbiy. Oziq-ovqat, qurol-aslaha va shu kabi harbiy anjomlar tashiydigan kema.

Poreyonimlar leksik-semantik tasnifi va tahlili transport vositalarining turlari, vazifalariga asoslanadi. Transportlarning xizmat vazifasi jihatidan poreyonimik birliklar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1.Yo‘lovchi transporti (*avtobus, poyezd, samolyot*) nomlari: *Isuzu, Yutong, Afrosiyob, Sharq, Airbus A320, Boeing 767-300ER* (o‘zbek tilida); *London Routemaster, Dennis Trident, Flying Scotsman, California Zephyr* (ingliz tilida) kabi.

2.Yuk transporti (*yuk mashinalari, vagon, tanker*) nomlari: *MAN TGX, Isuzu NQR, KamAZ-5490* (o‘zbek tilida); *Ram 1500, Chevrolet Silverado* (ingliz tilida).

3.Maxsus transport nomlari. Bu guruh qutqaruv, ta’mirlash, kommunal va harbiy transportnomlari mansubdir. Masalan, *Mercedes-Benz Sprinter, Ford Transit, KamAZ-65115, BTR-80* (o‘zbek tilida); *Iveco Daily, Renault Master, Volvo FE, Scania P-Series, Leopard 2, Bradley M2* (ingliz tilida) kabi.

Transportlar harakatlanish muhiti va o‘rniga ko‘ra muayyan guruhlarga bo‘linadi. Shu jihatdan poreyonimlarni ham quyidagi leksik-semantik turlar va ularni o‘z ichida kichik guruhlarga ajratish mumkin:

Quruqlik transporti nomlari. Yer yuzasida yoki relslarda harakatlanadigan eng keng tarqalgan transport turlari mazkur turga mansub. Shu jihatdan poreyonimlarning bu turi quyidagicha tasniflanadi:

1.Yengil va yuk avtomobillarining nomlari. Masalan, o‘zbek tilida: *Chevrolet Cobalt, Damas, Gentra, Labo, Isuzu NQR, MAN TGS*; ingliz tilida: *Toyota Corolla, Volkswagen Golf, Ford Mustang, Honda Civic, Ram 1500, Ford F-Series* kabi.

2. Jamoat transportlarining nomlari. Bu guruhga *avtobus, mikroavtobus, trolleybus va trambay* nomlari kiradi. Masalan, o‘zbek tilida: *Isuzu SAZ HC40, Mercedes-Benz Citaro, Skoda 14Tr,ZiU-682, Tatra T3, Vaio L*F; ingliz tilida: *Volvo 7900, London Routemaster, Renault Master, Ford Transit, New Flyer XT60, Alstom Citadis, Bombardier Flexity* kabi.

3. Temir yo‘l transporti nomlari. Bu guruhga *yo‘lovchi va yuk poyezdlari, yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdlar, metro* kabi transportlarning nomlari mansubdir. Masalan, o‘zbek tilida: *“Afrosiyob”, “Sharq”, “Nasaf”*; ingliz tilida: *Orient Express, Fyling Scotsman, The Ghan, California Zephyr* kabi.

4. Ikki g‘ildirakli transport vositalarining nomlari. Bu guruhni *mototsikl, skuter, velosiped, moped* kabi transport vositalarining maxsus nomlari tashkil etadi. Masalan, o‘zbek tilida: *Ural, Java, Vespa, Burgman, Orbea, Bianchi, Delta, Riga*; ingliz tilida: *Harley-Davidson, Triumph, Vespa, Lambretta, Raleigh, Brompton, Puch, Tomos* kabi.

II. Havo transporti nomlari. Havo transporti yo‘lovchilar, yuklar yoki maxsus jihozlarni havo yo‘llari orqali tashishga mo‘ljallangan barcha turdagi transportlarni o‘z ichiga oladi. Havo transporti vositalari vazifasi va ishlash prinsipiga ko‘ra bir nechta asosiy guruhlarga bo‘linadi, shu jihatdan bu turdagi poreyonimlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Yo‘lovchi samolyotlarning nomlari. Bu guruhga odamlarni uzoq masofalarga tezkor yetkazish uchun xizmat qiladigan havo transportlarining nomlari mansubdir. Masalan, *Boeing 737, Airbus A320, Boeing 787 Dreamliner.*

2. Yuk samolyotlarining nomlari. Katta hajmdagi va og‘ir yuklarni, tijorat mollarini tashishga moslashtirilgan havo transporti nomlari kiradi. Masalan, *Antonov An-225 Mriya, Antonov An-124 Ruslan, Boeing 747-8F, Boeing 777F, Airbus A330-200F.*

3. Vertolyotlarning nomlari. Uchish-qo‘nish yo‘lagi talab qilmaydigan, borish qiyin bo‘lgan hududlar (tog‘lar, o‘rmonlar)ga yuk va odam tashish, qutqaruv ishlarini olib borish uchun ishlatiladigan vositalarning nomlari kiradi. Masalan, *Mil Mi-8, Mil mi-24, Sikorsky UH-60 Black Hawk, Bell 206, Robinson R44* kabi.

4. Harbiy samolyotlar nomlari. Mudofaa, razvedka va boshqa harbiy maqsadlarda qo‘llaniladigan qiruvchi hamda bombardimonchi havo transporti

turlarining nomlari mansubdir. Masalan, *F-22 Raptor, F-16 Fighting Faclon, F-15 Eagle, MiG-29 Fulcrum, Eurofighter Typhoon* kabi.

Suv transporti nomlari. Poreyonimlarning bu turigadengiz, okean, daryo va ko‘llarda yuk hamda yo‘lovchi tashishga mo‘ljallangan transportlarning nomlari kiradi. Suv transportini ifodalovchi poreyonimlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Yirik kemalarining nomlari. Bunga laynerlar (kruiz kemalari), tankerlar (neft tashuvchi), konteyner tashuvchi kemalar, paromlarning maxsus nomlari mansubdir. Masalan, *Titanic, Queen Mary 2, Oasis of the Seas, Harmony of the Seas* kabi.

2. Qayiqlar (katamaranlar, motorli qayiqlar, yahtalar, katerlar) ning nomlari: *Boston Whaler 170 Montauk, Bayliner Element, Traxker Pro Team 175, Ranger RT178, Land 1650 Angler.*

3. Suv osti (asosan, harbiy va ilmiy maqsadlarda ishlatiladigan) kemalarining nomlari:*USS Nautilus, K-141 Kursk, Alvin, Mir 1* kabi.

Kosmik (Yerdan tashqariga, ya’ni kosmosga chiqish va yuk yetkazish uchun xizmat qiluvchi) transportlar (raketa va kosmik kemalar)ning nomlari: *Space Shuttle Discovery, Space Shuttle Atlantis, Space Shuttle Columbia, SpaceX Dragon.*

Xulosa. Poreyonimlar transport vositalarini nomlashga oid onomastik birliklar bo‘lib, o‘ziga xos leksik-semantik va nominativ xususiyatlarga ega. Ularning tahlili transport nomlarining kelib chiqishi, nomlanish motivlari hamda semantik guruhlarini aniqlash imkonini beradi. Poreyonimlarni transport turlari va vazifalariga ko‘ra tasniflash transport onomastikasining lingvistik xususiyatlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kovács L. “A Beemer, Queen Elizabeth and The Steaming Elephant” — A Comprehensive Overview of Vehicle Names in Onomastics // Onomastica. — 2023. — Vol. 67.

2. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. — 2-е изд., перераб. и доп. — Москва: Наука, 1988.

3. Puzey G. Aircraft Names // The Oxford Handbook of Names and Naming / Ed. by C. Hough. — 2016.

4. Ford Motor Company. Henry Ford Biography. — Ford Corporate, 2019.

5. Ford Motor Company. Ford Vehicle Showroom: All Vehicles. — Ford Corporate.

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. — Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. — V j. — B. 393.

7. Piller I. Variation in Automobile Naming // Names. — 1999. — Vol. 47, № 2.

8. Keller K. L. Strategic Brand Management. — Pearson Education, 2013.